O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

5. Heidolph, Karl E./Flämig, Erich/Motsch, Wolfgang. Grundzüge einer deutschen Grammatik, Berlin: Akademie-Verlag, 1984.
6. Zifonun, Gisela/Hoffmann, Ludger/Strecker, Bruno. Grammatik der deutschen Sprache, Berlin: De Gruyter, 1997.

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDAGI TIBBIY TERMINLARINING GENETIK TAHLILI

Buronova Xolida Toshtemirovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
buranovaxolida8987@gmail.com

Annotatsiya: Barcha fanning alifbosi hisoblangan terminologiyasini o‘rganish, tadqiq etish shu fanni egallovchi mutaxassis uchun ham, til egalari uchun ham, qolaversa, shu tilning taraqqiyoti uchun mas’ul mutaxassislar uchun ham birdek ahamiyatli. Tibbiyot terminologiyasi esa o‘zbek tili terminologik tizimlari ichida eng yiriklaridan, leksik-terminologik bazasi jiahtidan katta hajmli va murakkab tuzilish va jihatlarga ega tizimlaridan hisoblanadi. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi tibbiy terminlarning genetik tahlili izohli lug‘at asosida tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: lug‘at, lug‘atshunoslik, termin, genetik tahlil, etimologiya, o‘zlashma so‘z, o‘z qatlam.

Lotin va qadimgi yunon tillarining xalqaro tibbiyot terminologiyasining shakllanishidagi roli tarixiy voqea-hodisalar, xususan, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim sivilizatsiyasining Yevropa sivilizatsiyasi rivojidagi beqiyos o‘rni bilan izohlanadi. Ahamiyatli jihatlardan biri sifatida lotin tili mutaxassislarining ta’kidlashicha, ko‘plab lotin hikmatli so‘zlari, maqol va matallari hayot va o‘lim, inson salomatligi, shifokorning faoliyati bilan bog‘liq. Ammo bir necha yuzyillardan buyon o‘lik til hisonlanishiga qaramay, lotin va qadimgi yunon tillari birgalikda tibbiyot va biologiya ilmiy tili sifatida mazkur sohalar rivojiga hissa qo‘shib kelayotganini mutaxassislar lotin tili tarixidagi muayyan jarayonlar bilan bog‘lashadi .

Ta’kidlash kerakki, tibbiyot terminologiyasining (sof tibbiy terminologik tizim) o‘zida ham etimologik asosga bog‘liq ravishda ba’zi lingvistik terminologiyaga xoslikka putur yetkazuvchi hodisalar yuzaga keladi. Masalan, terminologik tizim birliklarining ham lotin, ham yunon tilidagi variantining barobar qo‘llanilishi:

suv: aqua (lot.) – hydor (yun.);
ayol: femina (lot.) – gynae (yun.);
dori: medicament (lot.) – pharmac (yun.);
ko‘z: oculus (lot.) – ophthalm (yun.);
burun: nasus (lot.) – rhin (yun.);
to‘g‘ri ichak: rectum (lot.) – proct (yun.) va b.

Yuqoridagi misollar xalq tilida ko‘p uchraydigan yoki barcha insonlar tibbiyot muassalari yoki tibbiy jarayonlarda duch kelishi mumkin bo‘lgan iste’molda faol bo‘lgan so‘zlarning lotin va yunon tillaridagi sinonim (aslida leksik dublet) variantlari.

Okulist huzuriga borish haqida ko‘rsatma olgan tibbiyotdan (tibbiy terminologiyadan) unchalik xabardor bo‘lmagan insonning “Oftalmolog” yozuvli xonada okulist o‘tirishidan bexabar holda ancha vaqt ovora bo‘lishiga o‘xshash holatlar mana shunday tibbiy terminlar sinonimiyasi natijasida ro‘y berishi ehitmoli yuqori.

Juda yirik hajmli tibbiyot terminologiyasi uchta katta guruhga ajratilgan holda o‘rganiladi: anatomiyaga oid terminlar (morfologik fanlar terminshunosligi); davolashga oid terminlar (patologik anatomiya va klinik fanlar kompleksi terminshunosligi); dorishunoslik terminlari (dori vositalari nomenklaturasi bilan birga) . Lotin tili anatomik va farmasevtik atamalarda, yunon tili klinik atamalarda faol hisoblanadi. Izohli lug‘at asosida tibbiy terminlarning guruhlanishi va mavzuiy bo‘linish prinsiplari haqida mulohazalar keyingi fasllarda batafsil bayon etiladi.

Tibbiyot terminologiyasining uchta yo‘nalishidan biri – anatomik terminlar tibbiy ta’limning muhim qismi sifatida qaraladi. Bunda lotin tili xususiyatlarini bilish juda muhim. Klinik terminlarda esa klinik amaliyotda yuzaga chiquvchi hodisalarni ifodalovchi terminelementlar asosida murakkab so‘zlar yasalishi jarayoni yetkachilik qiladi. Masalan, steno – tor, torayish; entero – ichak; nefro – buyrak; pexia (pexis-mustahkamlash) – ichki a’zoni mustajkamlash uchun jarrohlik operatsiyasi. Mana shu kabi tibbiy terminologiya yasalishiga oid o‘ziga xosliklar lotin va yunon tillariga oidligi O‘zbek tilining izohli lug‘atida biror qat’iy tartibga amal qilingan holda berilmagan. Ya’ni affiksatsiya usuli bilan yasalgan yoki terminelement orqali hosil bo‘lgan murakkab birlikdagi har bir morfemik qism qaysi tilga oidligi to‘g‘risida ma’lumot ba’zi so‘zlarda mavjud, ba’zilarida esa berilmagan. Masalan: bronxografiya so‘zida bronxo qismining etimologiyasi berilmagan, grapho yunoncha yozaman degani ekani berilgan. Agar murakkab tibbiy birlikning hosil bo‘lishidagi barcha qismlar bir tildan olinganligi (deylik, birinchi qism ham, ikkinchi qism ham yunon tilidan olingan bo‘lsa) birinchi qism oldidan shu tilga oid belgi orqali berilishi qoida sifatida olingan bo‘lsa, bronxografiya so‘zida bronxo dan oldin yun. belgisini keltirish orqali berilishi kerak edi.

Bundan tashqari gipo-, giper- prefiksli, limfa-, osteo-, nerv-, steno-terminelementli so‘zlarda ham xuddi shu holat kuzatiladi.

Aytib o‘tish joizki, bu kabi birliklarda ko‘plab so‘zlarda takrorlanuvchi prefiks yoki suffikslar lug‘atda avval izohlangan.

Ensefalit va esnefalogramma so‘zlari ketma-ket berilishiga va ular bir xil terminelementdan yasalganiga qaramay, bu so‘zlarning tarkibiy etimologik ma’lumotlari har bir so‘zda to‘liq berilgan.

Yallig‘lanishni bildiruvchi lotincha affiks -itis so‘zni butunlay lotincha deyishga asos bo‘lmasa kerak. Qolaversa, nega aynan laringit bilan bog‘liq o‘zakdosh so‘zlar ketma-ket berilayotgani juda ko‘plab bunday o‘zakdosh tibbiy terminlar orasidan qaysi mezonga asosan lug‘at uchun tanlab olinganligi haqida aniq tasavvur shakllanishi uchun shu birliklarda qo‘llanilgan leksikografik belgilar yoki lug‘at maqolalari yetarlicha asos to‘plash imkonini bermadi.

Ko‘rinadiki, etimologik ma’lumot berish jarayonida birlik tarkibida mavjud bo‘lmagan -in, toxikon kabi morfemalar keltiriladi. Sababi esa tuzuvchilarga ayon. Ushbu holat 2020-yilgi nashrda ham aynan takrorlangan. Bu kabi tushunmovchilikka

sabab bo‘luvchi holatlar lug‘atning keyingi nashrlarida tuzatish uchun inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, genetik ma’lumotlarning berilishi termin haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lish va tushuncha hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyotda terminlarga qo‘yiladigan talablardan biri uning etimologik ma’lumotiga ahamiyat berish hisoblanadi. So‘z (lotin, yunon tillaridan olingan) tibbiy termin sifatida shakllantirilish jarayonida uning tub etimologik ma’nosi o‘zgarmasligi lozimligi ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gylys, Barbara A. Medical terminology simplified: a programmed learning approach by body system/Barbara A. Gylys, Regina M. Masters. — Fifth edition. 2014
2. Rustamova S.Sh., Saydullayeva M.A., Abdullayeva R.M va boshqalar. Lotin tili va tibbiy terminologiya. TTA bakalavr 1-kurs talabalri uchun darslik. Toshkent, 2017. 311 b.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.42.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.42.
5. Rustamova S.Sh., Saydullayeva M.A., Abdullayeva R.M va boshqalar. Lotin tili va tibbiy terminologiya. TTA bakalavr 1-kurs talabalri uchun darslik. Toshkent, 2017. – B.144.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.492.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.488.
8. Buronova Xolida Toshtemirovna, & Aliqulova Sojida. (2023). “QUYUN IZLARI YOHUD OGAHIY” ROMANIDA TEONIMLARNING FUNKSIONAL-USLUBIY XUSUSIYATLARI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 238–245. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/850
9. Xolida, B. (2023). “QUYUN IZLARI YOHUD OGAHIY” ROMANIDA TARIXIY SHAXSLAR ISMLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 454-460.
10. Буронова, Х. (2023). Erkin samandarning “quyun izlari yohud ogahiy” romanida toponimlarning funksional-semantik xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 610–614. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25715